
SAMARBONU IJODINING O'ZIGA XOSLIGI

Madina G'ulomova

Alfraganus Universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr Farg'ona adabiy muhitining iste'dodli vakili Samar Bonu (Bonu)ning hayoti, ijodi va badiiy mahorati tahlil etilgan. Shoiraning she'riy merosi, mumtoz adabiyot an'analari munosabati hamda Hofiz, Alisher Navoiy, Fuzuliy va Huvaydo kabi mumtoz ijodkorlar bilan adabiy aloqalari yoritiladi. Tadqiqotda Bonu lirikasida ishq, hijron, ayol taqdiri, ma'naviy komillik va insonparvarlik g'oyalari badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, shoiraning nazira va radifgo'ylik an'alarini davom ettirishi, mumtoz she'riyat namunalariga ijodiy yondashuvi hamda o'ziga xos poetik uslubi misollar asosida ochib beriladi. Maqolada Samar Bonu ijodining o'zbek mumtoz adabiyotidagi o'rni va uning ma'naviy-badiiy merosini chuqur o'rganish zarurati asoslanadi. Tadqiqot natijasida Bonu ijodi o'zbek mumtoz she'riyatining yuksak namunalaridan biri sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Samar Bonu, Bonu she'riyati, XIX asr o'zbek adabiyoti, Farg'ona adabiy muhiti, mumtoz she'riyat, nazira, radifgo'ylik, ishq mavzusi, ayol shoirlar, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo, badiiy mahorat, ma'naviy meros.

XIX asr Farg'onasi o'zbek shoirlarining badiiy salohiyati juda yuqori bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu asr o'zbek adabiyotiga Uvaysiy, Nodira, Mahzuna va Samar Bonu kabi zabardast shoirlarni tuhfa etdi. Bonu (asl ismi Samar Bonu Sirojiddin qizi) 1837-yilda O'sh shahrida ulug' faylasuf shoir meros qilib qoldirgan yuqori darajadagi adabiyot muhitiga ega o'z davrining kuchli, adabiy-falsafiy doirasining markazi bo'lgan oilada tavallud topgan.

Samar Bonu pokligi, ma'naviy kamoloti, she'riy iste'dodi bilan Nodira, Uvaysiydar darajasida bo'lsa ham uning ma'naviy bulog'idan olingan bir hovuch suv she'riyat shaydolarini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Shu o'rinda To'xtasin Jalolovning "O'zbek shoirlari" kitobida Samarbonuning ilmiy me'rosi haqida

shunday deydi: “Samarbonu o‘z she’rlarini oqqa ko‘chirib ikki nusxada devon tuzgan, devonida “Alifdan Yo” gacha she’rlari bor deb” yozadi.

Bonu lirikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Me’ros dedim bobomlardan” masnaviysida Hofiz, Navoiy, Shamas Tabriziy, Ahmad Yassaviy va bobosi Huvaydoni tilga olib shoiralik iste’dodini ota-bobosidan meros ekanligini ta’kidlaydi. Ularning asarlariga tajnis, tatabbular yozgan. Shu bilan birga uning g‘azal va ruboiylarida sharq ayollarining qanchalik matonatligini ochib beradi. Uning quyidagi ruboiysi mana shu fikrimizning isboti desak adashmagan bo‘lamiz.

*Qip-qizil devonaman, ne nav qilay men o‘zni sog‘
Yuragim vayronadur, men shunchaki zohirda sog‘
Bu jahon xushnudligini xushlamassan, ey ko‘ngil,
Ehtiyot et, sen jahon ayvonida sonsiz tuzog‘*

Nega shoiraaning yuragi “xushnudlikni xushlamaydi”, nega “jahon ayvoni” boyaqish shoiraaga “sonsiz tuzog‘” bo‘lib ko‘rinadi...

Bonu 19 yoshida beva qolgan. Bu og‘ir judolik va musibatni turmush hodisalariga bog‘lab, o‘zi kabi ayollar qismatidan, zamonasidagi haqsizliklardan zorlangan. She’rlarida Layli, Shirin, Uzrolar bilan dardlashgan. Bonu ruhidagi isyonkorlik . oqilalik asarlariga singib, ketgan. Sevgi mavzusidagi she’rlari shaxsiy his-tuyg‘ular bilan chegaralanib qolmay keng ijtimoiy mazmun kasb etgan. Uning ijodida shaxs va zamon , ayollar taqdirini asosiy o‘ringa qo‘ygan. Erk uchun o‘zi tanlagan yo‘lning to‘g‘riligiga ishongan. Shoira 40 yildan ziyod badiiy ijod bilan shug‘ullangan. Ijodini mumtoz shoirlarga ehtirom bilan boshlagan. Asta-sekin kamol topib, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo kabi shoirlar bilan she’riy munosabatga kirishadi. Katta bobosi Huvaydoga radifgo‘ylik qilgan.

Huvaydo:

*Ayladim ishqing aro, ey, sho‘x, afg‘on o‘zga nav,
Aylag‘ondek el aro Majnun xayron o‘zga nav.
Gul yuzingni, g‘uncha og‘zingni ko‘rib ko‘nglum qushi
Aylamas parvoyi gulzoru, guliston o‘zga nav.*

Bonu:

Keldi bul kun qoshima no zila jonon o‘zga nav,

Qomati ra'nosi chun sarvi xiromon o'zga nav.

Aydim : Ey jonim, qadam qo'y diyda giryonim uzra,

Xush kelibdursen dedim taxti Sulaymonim o'zga nav.

Inson (Navoiy tili bilan) barcha mavjudodning sharafidir. Bu shariflik uning fazli kamolida, zako iste'dodida lutfida, karamida, marhamatida, mehrida, muruvvatida, ichki-tashqi go'zalligida, go'zallikka intilishida, ishq-muhabbatida namoyon bo'ladi. Sevish va sevilish insonga xos ajib ma'naviy boylikdir. Shuning uchun Navoiy:

Bo'lmasa ishq ikki jahon bo'lmasun,

Ikki jahon demaki jon bo'lmasun!

– deb mag'rur nara tortadi.

Biz yuqorida ishq – insonning ko'rki, bezagi, dedik. Navoiy esa, ishqsiz hayotni tan olmaydi. Bonu esa “Ishqsizlardan shikoyat” she'rida:

Ishqi yo'q odamni ham odam dema,

Modogovubarzagovdinkamdema!

Ishqi yo'q odam misoli chorpo,

Tuqqan ermas hech vaqt Odam Ato

Ishqi yo'q odam hamisha g'aflati,

G'aflatidur, g'aflatidur, g'aflati!..

Ishqi yo'q odam hamisha behabar

Qaysi ishda nafdur, qaysi Zarar.

Ishqi yo'qni joni yo'q, iymoni yo'q,

E birodar, bo'lmang andin ko'ngli to'q!

Ishqi yo'q odamga bo'lmanglar yaqin,

So'zladi bu so'zni “Maslak muttaqin”.

Ishqi yo'q odamni bilsang surati,

Surati, ki doimo haq la'nati...

Ishqi yo'q odam misoli modagov,

Fikri yodi yeb-ichar obu alov.

Ishqi yo'q odamni vasfin aytaman,

Aytib-aytib bu jahondin qaytaman...

Bu she'r hech qanday sharhga muxtoj emas. Bonu ishq kuychisi, ishq yo'qlarni

“Ishqi yo‘q – eshak, dardi yo‘q – kesak” deya muhr qo‘ygan. Tafakkur bobida bunday baland zinalarga ko‘tarilish uchun o‘z asrining fozilasi, komilasi, aqli raso qizi bo‘lish lozim.

Fuzuliy muxlislari uning mumtoz bir baytini mudom tilga olib, shoirga tahsin o‘qiydilar. U bayt shunday yuksak bahoga sazovordir. Quyida bayt shunday boshlanadi :

Mahshar guni go‘ram deram ul sarv qomati,

Gar onda ham go‘runmasagel go‘r qiyomati...

Fuzuliyning fusunkor g‘azallaridan biri shu bayt bilan boshlanadi. Ammo g‘azalning boshq baytlari bu fikrning mantiqiy davomi emas, ular boshqa mavzuda, boshq fikrlarning bayoni. Agar ta‘bir joiz bo‘lsa, Fuzuliyning bu g‘azali turli qimmatli toshlardan tuzilgan shoda marjonga o‘xshaydi.

G‘azalning birinchi bayti Bonuning ham havasini keltiradi. Ammo Bonu mumtoz baytning “nuqson”ini ham payqaydi. Bu baytdagi “nuqson” shundan iboratki, qiyomatda sarv qomat mahbubni ko‘rib unga bir narsa demoq , unda ham ko‘rinmasa, qiyomat ko‘tarib g‘avg‘o solmoq uchun Mahbub firoqida bu olamda kuymoq kerak. Lekin u darajada alamzada bo‘lmoq uchun Fuzuliyda asos yo‘q, u darajaga ko‘tarilish uchun Fuzuliy g‘azalida zina yo‘q.

Bonu o‘zining nafis g‘azallaridan birida Fuzuliy shu “xató” sini tuzatadi.

Senga men dil berib bo‘ldim tun-u kun oh deb noshod,

Sanam xajringda qilg‘aymen bu o‘tgan umrimi barbod,—

Deb boshlangan bu g‘azal o‘quvchini misrama-misra bundan keyingi voqealarga tayyorlab boradi. Lirik qahramon bu pastkash dunyoning qo‘lida joni qafasdagi to‘ti kabidir, qiyomat yaqinlashganda, bu qafasdan “oh” deb ozod bo‘laman, bordiyu shunda ham:

Agar adlingga olmay qo‘ygan elni kuydirar bo‘lsang,

Buzar maxsharni Bonu qichqururda dod deb bedod

—shaklida xotima yasab, lirik qahramonning bu darajaga kelishini asoslaydi.

Xulosa qilib aytganda, Samarbonu she‘riyati bilan bog‘liq ma‘naviy me‘rosimizni chuqurroq va to‘laroq o‘rganish, adabiyotshunoslarimizning ayniqsa, biz yoshlarning oldimizdagi ulug‘ burchdir. Uning mumtoz adabiyotimizga qoldirgan

ma'naviy me'rosi, badiiy salohiyati ma'naviy kamoloti yuqori darajadagi shoira ekanligini faxr bilan ayta olamiz. Bonuning ijodi hozirgi va kelajak avlodning rivojlanishiga qaratilgan o'tmishning ma'naviy merosida ulkan hissa bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hoshimova S. Samarbonu. –Andijon: Hayot, 2000.
2. Jalolov T. Samar Bonu. –Toshkent: Shahrixon, 1984.
3. Bonu Bulog'idan // Shark yulduzi. 2014. 2-son. –B.76.
4. Akbarxujayev T. Sharqning yetti yeg'dusi. –Toshkent: Xalq meosi, 1999.
5. Husanov O. Samarbonu asarlar, maqolalar, intervyular, ilmiy ishlar... –Toshkent: Turon, 2015.
6. To'xtasin J. O'zbek shoiralari. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1970.
7. Ibragimova, D. I. (2025). FACT AND INTERPRETATION IN THE REPRESENTATION OF HISTORICAL FIGURES. Экономика и социум, (5-1 (132)), 293-296.
8. Turdiyeva, Y. The Phenomenon OF Artistic Style in Uzbek Literature. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 6(12), 22-23.
9. Botirova Sh.I. (2020). FORMING PATRIOTIC SPIRIT WITHIN PEDAGOGICAL EDUCATION CLUSTER. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, <5(10), 200-205.
10. Botirova, Sh.I. (2020). The Role of Artistic Psychology in the Metaphorical Harmony of Man And the Reality of Life. Asian Journal of Multidimensional Research, 9(4).
11. Botirova Sh.I. (2020). Problematic Aspects Related To the Use of Educational Technologies And Interactive Methods In The Classroom. International Journal of Multidisciplinary Research, 6(8), 539-541.
12. Ziyatova, B. B. (2024). Innovatsion tafakkurning falsafiy, psixologik va didaktik mohiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(26), 389-393. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14544678>
13. Isoxonovich, X. M. (2025). AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI. *Alfraganus Universiteti Konferensiya Materiallari*, 5(1), 883-890.
14. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). THE PLACE OF ECOLOGY IN THE VALUE SYSTEM OF YOUTH IN TRADITIONAL SOCIETIES (BASED ON THE CASE STUDY: A SOCIOLOGICAL RESEARCH CARRIED OUT RECENTLY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN). *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 35-48.
15. Stepanova, O., & Xujayev, M. (2024). ARISTOTLE'S LOGICAL DOCTRINE TRANSFORMATION IN EASTERN PERIPATETICS WORKS. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(1), 4-13.

16. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudi as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.